
“TASHABBUSLI BYUDJET” DOIRASIDA 32-MAKTABDA 140 O‘RINLI QO‘SHIMCHA O‘QUV BINOSI QURILMOQDA

“Besarang” mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan 32-umumta‘lim maktabida o‘quvchilarga munosib sharoitlar yaratib berishni ilgari surilgan tashabbus 5500 dan ziyod ovoz to‘plab, g‘olib deb topilgan. Natijada 1 milliard 200 million so‘m mablag‘ ajratilib, mazkur o‘quv maskanida “Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida 140 o‘rinli qo‘shimcha o‘quv binosi barpo etilmoqda.

Ayni kunlarda maktabdagi qo‘shimcha bino quruvchilar tomonidan zamon talablari asosida qurib bitkazilmoqda. Bino foydalanishga topshirilgandan so‘ng, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 6 ta keng va yorug‘ sinfxonalarda bilim oladilar.

2023-10-25 14:59:45